

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

— 2-2023 —

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Dizayn (kostyum) sohasi neologizmlarining tarjima­dagi xususiyatlari	430
I.Xoldarova, X.Ergʻoziyeva	
Ona tili darslarida fonetikani oʻrgatish orqali orfografik va orfoepik bilimlarni shakllantirishda innovatsion texnologiyalar va mashqlarning oʻrni	434
K.Turgunaliyeva, D.Mirzayeva	
Oʻzbek va ingliz tillaridagi sheʼrlarning stilistik tahlili	439
Sh.Turgʻunov	
Oʻzbek xalq oʻlanlarida etnik mansubiyat ifodasi	442
R.M.Ubaydullayev, U.R.Abdullayev	
Jismoniy mashqlar maktab oʻquvchi yoshlarning morfofunktsional xususiyatlariga bogʻliqligini tahlili	447
I.Akramov	
Aforizmlarni pragmatik tushunish aspektlari	450
L.Badalova	
Ingliz tilini chet tili sifatida oʻrgatishda storytelling yondashuvining ahamiyati	455
S.Eshonqulova	
Nodira badiiy tafakkurini shakllanishida Qoʻqon adabiy muhitining oʻrni	458
H.Dusmatov, M.Husaynova	
Oʻzbek latifalarida soʻz oʻyinlarining uslubiy-pragmatik xususiyatlari	468
N.Shavilova	
Rus va oʻzbek tillarida paronimlarning tasnifi.....	472
M.Xusanova, M.Xusanova	
Somatik kodlar tadqiqiga doir	478
M.Rahimova	
Oʻzbek tilida leksik nomemalar.....	481
D.Sirojiddinova	
Ingliz tilida modal soʻzlar muqobillari haqida umumiy qarashlar.....	484
D.Raximjonova	
Ingliz tilshunosligida kompyuter dasturiy taʼminot atamalarining tuzilish xususiyatlari.....	489
U.Eshmuradov	
Til oʻrganishda tinglashning ahamiyati va tinglab tushunish muammolari: til oʻrganuvchilar tajribasi.....	493
A.Rasulova	
Toʻsiqsizlik munosabatining jahon tilshunosligida oʻrganilishi	497
G.Odilova	
Glyuttonik diskursning lingvistik xususiyatlari	500
X.Abdurahmonov	
Oʻzbek tilshunosligi tarixida mavhum otlarning oʻrganilishi va ularning ahamiyati.....	504
M.Otaboyeva	
Oʻzbek va ingliz tillaridagi feʼl semantik kategoriyalari boʻyicha tuzilgan graduonimik qatorlarning oʻxshash va farqli jihatlari	508
G.Rozikova	
Soʻz semantik taraqqiyotidagi oʻzgarishlar xususida.....	511
Sh.Siddiqova	
Oʻziniki boʻlmagan koʻchirma gaplarda obrazlilikni taʼminlovchi semantik-stilistik faktorlar.....	516
N.Usarova	
Tarjima muammosining nazariy jihatlari	520
K.Toʻxtaeva	
C1 darajadagi talabalarga ingliz tilini oʻqitish muammolari.....	524
Z.Usmonova	
Rey Bredberining “Marsga hujum” (“The martian chronicles”) asari bilvosita tarjimasida tarjima usullari va oʻziga xos xususiyatlari.....	531
G.Davlyatova, Sh.Artikova	
Ritorik nutqda pleonastik birliklarning foydalanishi	535

**INGLIZ TILINI CHET TILI SIFATIDA O'RGATISHDA STORYTELLING
YONDASHUVINING AHAMIYATI**

**РОЛЬ СТОРИТЕЛЛИНГОВОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ
ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ**

**THE ROLE OF THE STORYTELLING APPROACH IN TEACHING ENGLISH AS A
FOREIGN LANGUAGE**

Badalova Luiza Xolmamatovna¹

¹Badalova Luiza Xolmamatovna

– Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, chet tillar kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Til murakkab psixologik jarayon bo'lib, uni tafakkur yoki idrokdan alohida baholash va rivojlantirish mumkin emas. Butun dunyo o'qituvchilari va psixologlari hikoya qilish (storytelling) uslubiga katta qiziqish bildiradilar, zero o'quv materialni hikoya tarzida taqdim etish til o'rganuvchilarning diqqat-e'tibori va tanqidiy fikrlashlarini rivojlantiradi, shu bilan birga madaniy tarbiya darajasini oshiradi. Qiziqarli va hayajonli hikoya sifatida taqdim etilgan o'quv material shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirishga yordam beradi, har bir talabada tasavvurining o'ziga xosligini namoyish etadi, faollik va ijodkorlikni namoyish etishga imkon beradi. Ushbu maqolada ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishda storytelling yondashuvining ahamiyati muhokama qilinadi.

Аннотация

Язык — это сложный психологический процесс, который нельзя оценивать и развивать отдельно от мышления или восприятия. Педагоги и психологи всего мира очень интересуются методом сторителлинга, ведь подача материала в виде рассказа развивает внимание и критическое мышление изучающих язык, и в то же время повышает уровень культурного образования. Учебный материал, представленный в виде интересного и увлекательного рассказа, способствует развитию личностных качеств, показывает уникальность воображения каждого ученика, позволяет проявлять активность и творческие способности. В данной статье рассматривается роль сторителлингового подхода в обучении английскому языку как иностранному.

Abstract

Language is a complex psychological process that cannot be evaluated and developed separately from thought or perception. Teachers and psychologists all over the world are very interested in the storytelling method, because the presentation of the material in the form of a story develops the attention and critical thinking of language learners, and at the same time increases the level of cultural education. Educational material presented as an interesting and exciting story helps to develop personal characteristics, shows the uniqueness of imagination in each student, allows to be active and show creativity. This article discusses the role of the storytelling approach in teaching English as a foreign language.

Kalit so'zlar: hikoya qilish usuli, kommunikativ kompetentsiya, gapirish ko'nikmasi, tanqidiy fikrlash.

Ключевые слова: метод повествования, коммуникативная компетенция, навык говорения, критическое мышление.

Key words: storytelling method, communicative competence, speaking skill, critical thinking

KIRISH

Hozirgi kunda ingliz tili globallashtirish va dunyo miqyosida madaniy, iqtisodiy va siyosiy iste'molda hukmron davlatlar tomonidan so'zlashayotganligi sababli eng muhim global til hisoblanadi. Haqiqatda tilni o'zlashtirish, nutq mahorati qiyin mahorat hisoblanadi. O'qitish va o'quv jarayonidagi kuzatuvlarga asosan, ingliz tilida gapirishni o'rganishda ko'plab to'siqlarga duch keladigan talabalar hali ham ko'p. Ular gapirishni boshlash, to'g'ri jumlar tuzish, doimiy suhbatni davom ettirish, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, hatto his-tuyg'ularini, g'oyalarini va fikrlarini ifoda etishda qiynaladilar. Shuning uchun o'quv mashg'ulotlari davomida ingliz tilidan real muhitda foydalanishni ochib beradigan va shu bilan talabalarning motivatsiyasi va til ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradigan usullarni joriy etish muhimdir. Tilning real kontekstida kommunikativ ko'nikmalarni yaxshilash uchun qo'llaniladigan usullardan biri hikoya qilish (storytelling) usulidir. Storytelling usuli ingliz tili o'qituvchilari uchun o'quv jarayonida keng ko'lamlil texnika va yondashuvlarni taqdim etish uchun kuchli vositaga aylanib ulgurgan; bu usul har bir mashg'ulot davomida to'rtta kommunikativ ko'nikmani o'z ichiga oladi va har bir faoliyatda deyarli ikkita kommunikativ ko'nikmalarni birlashtiradi. Hikoya talabaga yo'naltirilgan (student-centred) usul

sifatida ularning yoshi va kontseptual darajasi, ularning ehtiyojlari va qiziqishlari, til bilish darajasi va oldingi tilni o'rganish tajribasi kabi talaba xususiyatlarini hisobga oladi. Harmer nutqni o'rgatishda asosiy e'tibor haqiqiy til materialidan foydalanishga qaratilishi kerakligini taklif qildi. Shu sababli, xorijiy tillarni o'qitish nazariyalari bo'yicha samarali nutq so'zlash tilni o'rganishda boshqa ko'nikmalar kabi asosiy hisoblanadi [1, 46-55].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, til o'rganish strategiyasi sifatida hikoya qilish (storytelling) usulini qo'llaydigan ta'lim jarayonlari, mashg'ulotlarda tahsil olayotgan talabalar o'zlarining til ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bog'liq yutuqlar haqida xabar berishadi. Bunga tegishli tadqiqot 1989 yilda Jeki Pek tomonidan til va savodxonlikni rivojlantirish uchun hikoyalardan foydalanishdir. Ushbu tadqiqotda hikoya qilish (storytelling) qanday qilib ifodali til rivojlanishi, yozma va og'zaki nutq rivojlantirishi ko'rsatilgan. Pek hikoya qilish yodlangan stsenariyni taqdim etish emas, balki u kelib chiqqan o'ziga xos an'ananing barcha lazzati va tili bilan tabiiy tarzda hikoya qilingan hikoyadir deb ta'kidlaydi. Pek (1989) hikoya qilish usuli orqali talabalarga ikkita alohida holatda hikoya qilish usulidan foydalanishni taklif qiladi:

□ Birinchi holat — o'qituvchi hikoyachi sifatida, bu holda talabalar tanqidiy tinglashni rivojlantiradilar.

□ Keyingi holat — talabaning hikoyachi sifatida, bunda talabalarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish imkoniyatini beradi [4, 138-141].

Xorijiy tillarni o'qitish va talabalar og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning ingliz tilida erkin muloqot qilishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tashkil etish maqsadida darslarda hikoya qilish metodidan foydalanib, uning qanchalik samaradorligi va talabalar nutqini o'stirishda ta'siri sinov darslarini tashkil etish orqali o'rganildi. Mashg'ulotlar davomida kitoblar, internet resurslari, rasmlar vizual va turli xil tarqatma materiallardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu qismda eksperimental darslar jarayonida hikoyalardan foydalanish talabalar nutqining rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkinligini aniqlash uchun o'qituvchi turli mashg'ulotlarni qanday rejalashtirganligi, loyihalashtirgani va amalga oshirganligi haqida qisqa va aniq tushuntirish berishga qaratilgan. Bundan maqsad talabalarni hikoya qilish (storytelling) yondashuvi bilan tanishtirish va ingliz hikoyalarini tarjimasiz tinglab tushunish va og'zaki nutqda qo'llash muammolarni yengillashtirish edi.

Har bir mashg'ulot jarayonida hikoya qilish: pre-storytelling, while-storytelling and after-storytelling bosqichlari qo'llanilgan edi. Birinchi mashg'ulotni tanishtirishdan oldin talabalarining umumiy bilimlarini aniqlandi. Keyin o'qituvchi hikoyani tanishtirish maqsadida pre-speaking topshiriqlarini berdi. Ushbu jarayon tanlangan kitobni taqdim etish va talabalardan kitobning nomi va muqovasidagi rasmlarga ko'ra nima haqida bo'lishini so'rashdan boshlandi.

So'ng o'qituvchi tomonidan imo-ishoralar, ovoz proektsiyasi va ko'z bilan aloqa (eye-contact) qilishdan foydalangan holda hikoyani baland ovozda aytib berildi. Talabalarga yetarlicha ma'lumot berish, tushunishni tekshirish uchun har bir voqea bo'yicha savollar berish va talabalarining diqqatini hikoyaga qaratish; bir vaqtning o'zida o'qituvchi talabalarni hikoya mazmuni bilan tanishtirish uchun kitobdagi rasmlarni ko'rsatildi.

Hikoyaning oxirida har bir talabadan hikoyaning qisqa qismlarini eslatib, keyin qayta aytib berish yoki eslatib o'tish so'raldi, bu usul orqali ular butun auditoriya tomonidan aytilgan hikoyani yaxlit qurishga erishdilar, talabalar yangi qahramonlar, vaziyatlar va harakatlarni ingliz tilida ayrim grammatik xatolar bilan bo'sada tanishtirishga harakat qildilar. Shunday qilib, o'quv jarayonida kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish uchun hikoya qilish usuli talabalarining ingliz tilini rivojlantirishga yordam beradigan turli xil topshiriqlar va vositalarni taqdim etadi. Hikoyalar til o'rganuvchi uchun til tajribasida mukammal vosita bo'lishi mumkin bo'lgan kuchli motivatsiyani uzatadi. Shu sabablarga ko'ra, ingliz tilini chet tili sifatida o'rganishda hikoyalar va hikoya qilish usuli muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, talabalar uchun o'quv jarayoni osonlashadi, chunki ular har bir topshiriqda hikoya qilish usulidan foydalangan holda kommunikativ listening – speaking/reading-writing ko'nikmalarni muntazam rivojlantirib boradilar.

Chet tillarni o'qitishda ushbu yondashuvdan foydalanish o'qituvchilarni talabalar yoshi, bilim darajasi va qobiliyatlarini inobatga olib pre-/while/post topshiriqlarni qanday ishlab chiqishga, ularni qanday ketma-ketlikda loyihalash va amalga oshirishga, samarali o'quv mashg'ulotlar tashkil etishga undaydi [7, 174].

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu yondashuv ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir qiladi, chunki hikoya orqali taqdim etilgan mazmun talabalarga shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlashga yordam beradi, hikoya qilish va tinglash orqali ular ijtimoiy dunyo haqida chuqurroq fikr yuritishga, xulosalar qilishga harakat qilishadi. Bundan tashqari, ta'lim muhitida hikoya qilish usulini qo'llash talabalarni ijtimoiy muammolar haqida tanqidiy va chuqur fikrlashga jalb qilish orqali ongini oshiradi. Bu jarayon ularning o'zgakli nutqi va mulohazalariga ta'sir ijobiy qiladi, ularga o'zlari va o'qituvchilari o'rtasida do'stona munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi, shu bilan birga talabalarda individual qarashlar rivojlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Harmer, J., 2001, *The Practice of English Language Teaching*, third edition, London, Improving Speaking Skills Through Instruction in Oral Classroom Participation, Tsou, W., 2005, Volume 38, Issue 1, pages 46–55.
2. Cooper, P. (1993) *When stories come to school: telling, writing and performing stories*. New York, teachers and writers collaborative. Longman.
3. Mario Rinvolucri, *Storytelling: the language teacher's oldest technique* / British Council Teaching English - Режим доступа <https://www.teachingenglish.org.uk/article/story-telling-language> (дата обращения 16.02.2023).
4. Peck, J. Using Storytelling to Promote Language and Literacy Development. *The Reading Teacher*. Vol. 43, No. 2, *Teachers' Choices Best New Children's Books* (Nov., 1989), pp. 138-141 Published by: Wiley.
5. Эрдниева, Э. В. Storytelling как средство формирования коммуникативной компетенции бакалавров гуманитарного профиля / Эрдниева Э. В. // Научные исследования: от теории к практике: материалы III междунар. науч.-практ. конф. — Чебоксары, 2015. — Т. 1. — С. 298–300. (Erdnieva, E. V. Storytelling as a means of forming the communicative competence of bachelors in the humanities / Erdnieva E. V. // Scientific research: from theory to practice: materials of the III Intern. scientific-practical. conf. Cheboksary, 2015. Vol. 1, pp. 298–300.)
6. Ермолаева, Ж. Е. Сторителлинг как педагогическая техника конструирования учебных задач в вузе // КиберЛенинка. — Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/storritelling-k> (дата обращения: 16.02.2023). (Ermolaeva, Zh. E. Storytelling as a pedagogical technique for designing educational tasks at a university // CyberLeninka. — Access mode: <https://cyberleninka.ru/article/n/storritelling-> (date of access: 02/16/2023)
7. Badalova, L. (2022). Development of the cognitive interest of students in teaching a foreign language at a technical university. *Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 174–176. Retrieved from <http://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/79>
8. Badalova Luiza Kholmamatovna. (2022). Formation of Intercultural Competence in Teaching the Translation of Economic Texts. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 6, 14–19. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/801>
9. Badalova Luiza Kholmamatovna. (2022). Formation of Intercultural Competence in Teaching the Translation of Economic Texts. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 6, 14–19. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/801>
10. Badalova, L. (2019). Accelerating Education, Individualization and Classification based on Developing Innovative Methods. *Eastern European Scientific Journal*, (1). <http://journale.auris-verlag.de/index.php/EESJ/article/viewFile/1041/1210>